

## ABDULLA AVLONIYNING ASARLARIDA PEDAGOGIK QARASHLAR

*Ganiyeva Gulmira Maksetbayevna*

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti stajyor-o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Abdulla Avloniyning pedagogika sohasiga qo'shgan ulkan hissasi, uning pedagogik qarashlari, maktablar uchun yozilgan darsliklari hamda "Turkiy guliston yoxud axloq" asarining pedagogika taraqqiyotidagi tutgan o'rni haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar.** Pedagogika, Shayx Sa'diy, axloq, yaxshi xulq, yomon xulq, ta'lim, tarbiya, axloq kategoriyalar.

**Аннотация.** В данной статье описывается большой вклад Абдуллы Авлони в область педагогики, его педагогические взгляды, учебники, написанные для школ, и роль «Турецкого Гулистана или Этики» в развитии педагогики.

**Ключевые слова.** Педагогика, Шейх Саади, этика, хорошее поведение, плохое поведение, воспитание, обучение, категории этики.

**Annotation.** This article describes the great contribution of Abdulla Avloni to the field of pedagogy, his pedagogical views, textbooks written for schools, and the role of "Turkish Gulistan or Ethics" in the development of pedagogy.

**Keywords.** Pedagogy, Shaykh Saadi, ethics, good behavior, bad behavior, education, training, ethics categories of ethics.

*Abdulla Avloniyning "Tarbiya bizlar uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir" degan so'zlari har bir maktab binosida yozib qo'yilishi shart.*

*Shavkat Mirziyoyev*

Abdulla Avloniy – shoir, yozuvchi, dramaturg, pedagog, jurnalist va xalq arbobi, umumiy qilib aytganda milliy uyg'onish adabiyotining yirik vakillaridan biridir. Avloniyning hayot yo'li va ijodini o'rgangan har qanday insonning tafakkurida Abdulla Avloniy shaxsiyati millat taraqqiyoti yo'lida fidoiylarcha xizmat qilgan ulkan muttafakir sifatida gavdalanadi. Abdulla Avloniyning didaktik qarashlari, g'oyalari o'rganishdan oldin uning hayoti haqida ma'lumotlar keltirmoqchimiz.

Abdulla Avloniy 1878 yilning 12 iyulida Toshkentning Mergancha mahallasida to'quvchi dunyoga keldi. Otasi Miravlon aka mayda hunarmand-to'quvchilik bilan shug'ullangan. [1. 4b]

Avloniy yoshligidan ishlab, pul topishni boshlagan. Uni "Imaratgi usta" deb nomlashgan. Bu haqda u o'z tarjimai holida shunday yozadi: 12 yoshimda O'qchi mahallasidagi madrasada tahsil olganman, 13 yoshimda pul topib, oilamga yordam berganman, qishda esa o'qiganman.

15 yoshidan Abdulla Avloniyning she'rlari yozma manbalarda chopila boshlagan. 1904 yil Avloniy jadidlar boshqaruvchilaridan biri bo'lgan va jadidchilik maktabini ochgan, 1909 yil "Jamiyati hayriya" tashkilotini yaratadi. 1905-1917 yillar o'z nashrlari bilan bosma manbalarda faol qatnashadi, "o'zgarish urug'lari"ni eka boshlaydi.

Avloniyning pedagogik faoliyati, ta'lim-tarbiyani borasidagi fikrlari jadidchilikning yo'nalishi va xususiyatlarini belgilashga yordam bersa, she'riyati XX asr o'zbek milliy she'riining maydonga kelishi va tarixiy takomilini tayin etishga qimmatli materiallar beradi.

XX asr boshlarida Turkiston madaniy hayotida yuz bergan eng muhim o'zgarishlardan biri maktab o'quv ishlarida o'zgarish bo'ldi. Avloniy bu davrda jadidchilik harakatiga qo'shib, Toshkentdagi jadidlarning faol ishtirokchilaridan biri bo'lib tanildi. Avloniy 1904 yilda Mirobodda, so'ngroq Degrezliqda (1903–14) xuddi shunday yangi usulda, yangicha maktab ochib, dars berdi va darsliklar yozdi.

1907 yil Avloniy "Shuhrat" gazetasini ochadi. O'qishdan so'ng pedagogika bilan shug'ullanadi, yangi o'quv tizimiga asos soladi va Sharq hamda G'arb tillarini o'qitish taklifini beradi.

Abdulla Avloniyning maktab uchun yaratgan to'rt qismdan iborat "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" hamda "Birinchi muallim", "Turkiy guliston syoxud axloq", "Ikkinchi muallim", "Maktab gulistoni" kabi darsliklari ham pedagogika sohasida, ta'lim tarbiya sohasida amalga oshirilgan ulkan xizmat bo'lib hisoblanadi. Bu asarlardagi mukammal fikrlarning g'oyaviy to'liqligi, ta'lim-tarbiya tizimiga va tushunchalariga doir fikrlarning ilmiy-nazariy asoslanganligi yuqoridagi fikrlari-miz dalilidir. Bundan tashqari, Abdulla Avloniy ijodiy merosi bilan ilk darsliklar-ning mukammal yaratuvchisi sifatida ham gavdalanganligi, asarlaridagi ta'lim va tarbiyaga doir tushunchalarning, g'oyaviy-badiiy mushohadalarning tadqiq qilin-

ganligi, qolaversa, mavzuning dolzarbligi ma'rifatparvar adib, serqirra ijodkor Abdulla Avloniyning ijodida bugungi kunning eng muhim masalasi-ta'lim va tarbiyaga doir fikrlarning dalili hikoyalar, she'riy lavhalar misolida yoxud majoziy xarakterga ega hikoyatlar asosida ochib berilishi asnosida ko'zga tashlanadi.

Mashhur ma'rifatchi "Birinchi muallim" kitobi pandlar, hikoyalar va ibratlardan tashkil topgan bo'lib kitob shunday jumlar bilan boshlanadi :

" Muhtaram muallim afandilarimizdan rijo qilurmanki, bizning "Birinchi muallim"imizdan ham olub, tajriba qilub, o'qutub ko'rsalar. Chunki hr gulning bit isi, har meaning bir ta'm va mazasi vordur. Bu "bo'y" va ta'm esa tajriba sohiblarina kash va ma'lum o'lur..." [2. 6b]

Maktab o'quvni ko'rsotur,  
Maktab yozuvni ko'rsotur,  
Maktab uyqudin uyg'otur,  
G'ayrat qilub o'qing, o'glon!

“Ikkinchi muallim” kitobida keltirilgan ushbu satrlardan ham shuni bilish mumkinki Avloniy bolalarni maktabda tahsil olishi naqadar zarur ekanligi, maktabda o`qish orqali nafaqat o`qish va yozishni o`rganish mumkinini balki, uyqudagi kishi uyg`onishi misolida maktab insonni tafakkuri, dunyoqarashini o`zgarishiga, hayotga yangicha nigoh bilan qarashiga ishora qiladi.

Abdulla Avloniyning ta`limiy axloqiy asarlari, ayniqsa “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida o`zining didaktik qarashlari o`z aksini topgan bo`lib, bu qarashlar hozirgi kunda ham o`zining dolzarbligini yo`qotmagan.

Mazkur asarni Abdulla Avloniy fors klassik shoiri shayx Muslihiddin Sa`diy (1184–1310)ning “Guliston” asaridan ta`sirlanib, unga taqlid qilib yozganligi haqida ma`rifatchining o`zi shunday deydi: “Ban bu asari nochizonami bir necha muallim birodarlarimning iltijolari ila yozmoq va nashr qilmoqg`a g`ayrat va jasorat qilmish edim. Alhamdu lilloh val minna ikkinchi tab`ihada muvaffaq o`ldum, chunki Turkiston maktablarida o`z shevamizda (o`zbek tilida demoqchi) yozilmish mukammal “Axloq kitobining shunday asarga tashna va muhtoj ekanlig`i o`zum muallimlar jumlasidan o`ldig`imdan manga ham ochiq ma`lum o`ldi. Shuning uchun ko`p vaqtlar tajriba so`ngidan adibi muhtaram shayx Sa`diy usulida yozmoqni, garchi og`ir ish bol`sa ham, o`zimga muqaddas bir vazifa ado qilaroq bu kamchilikni oradan ko`tarmakni munosib ko`rdim”. Buyuk pedagogning bu so`zlaridan shuni anglash mumkinki, “Turkiy Guliston yoxud axloq” Sa`diyning “Guliston” asari usulida o`zbek tilida yozilgan odob-axloq haqidagi noyob durdona kitoblardan biridir.

Abdulla Avloniyning mazkur asari 1913-yilda Toshkentda Ilin bosmaxonasida litografik (toshbosma) usulida nashr etildi. Asar o`sha davda bunday darslikka bo`lgan ehtiyojlarni hisobga olgan holda 1917-yilda kelib ikkinchi marta qayta chop qilindi. Har ikki nashr ham hajm jihatidan bir-biridan farq qilmaydi. “Turkiy Guliston yoxud axloq”ning uchinchi nashrini 1967-yili “O`qituvchi” nashriyotida chop qilindi. Bunda asarda uchragan diniy iboralar, Hadisdan olingan hikmatlar davr talabiga ko`ra tushirib qoldirildi. Asarni “O`qituvchi” nashriyoti 1992 yil asli nusxa yozuvida (arab yozuvi asosidagi o`zbek yozuvida) va rus alifbosi asosidagi o`zbek yozuviga o`girilgan matni bilan birga, hamda, qiyin so`zlar lug`ati ilova qilingan holda bosmadan chiqardi. “Men bu asari nochizonamni birinchi maktablarimizning yuqori sinflarida ta`lim bermak ila barobar ulug` adabiyot muhiblari, axloq havaskorlarining anzori oliylarına taqdim qildim”[2. 33b]

Har tomonlama yetuk, barkamol insonni tarbiyalash, yomonlikdan qaytarib, yaxshilikka chorlash bevosita tarbiya bilan bog`liqdir. Asarning tarbiya haqidagi bobida shoir Pedagogikani bola tarbiyasi haqidagi fan ekanligini ta`kidlab o`tib, bolaning saodati uchun uni yaxshi tabiya qilmoq kerak ekanligini, tanasini pok tutmoqlikni, hali yoshlikdan boshlab yaxshi xulqlarni o`rgatish lozimligini hamda yomon xulqlardan uzoqda saqlash kerakligi haqida aytib o`tgan bo`lib, bu fikrlar hozirgi kunda ham o`z ahamiyatini yo`qotmagan, ya`ni yosh –avlod tarbiyasidagi asosiy g`oyalardan biridir.

“Turkiy guliston yoxud axloq” asarini “Yaxshi xulqlar” (31 fazilat) va “Yomon xulqlar” (20 illat) kabi qismlarga bo‘ladi. Yaxshi xulqlar sirasiga quyidagilarni kelirib o‘tadi: fatonat, diyonat, islomiyat, nazofat, g‘ayrat, riyozat, qanoat, shijoat, ilm, sabr, hilm, intizom, miqyosi nafs, iffat, hayo, idrok va zako, hifzi lison, iqtisod, viqor, xavf va rajo, itoat, haqshunoslik, xayrixohlik, munsilik, sadoat, muhabbat, va avf. Yaxshi xulqlarning bayonini keltira turib quyidagi bayt keltiriladi:

Yaxshi birla yursa, har kim maqsudi hosil bo‘lur,  
Yursa nodonlar ila bir kun borub qotil bo‘lur.  
Kattalar qilgan nasihatni kichiklar olmasa,  
Oqibat xulqi buzuq bir beadab johil bo‘lur.[3.6 b]

Insonlarni saodatdan mahrum qiluvchi, Haq oldida hamda xalq nazarida ham mazmum qiluvchi xulqlarni yomon xulqlarga esa quyidagilarni sanab o‘tadi: g‘azab, shahvat, jaholat, safohat, hamoqat, atolat, hasosat, raxovat, anoniyat, adovat, namimat, g‘iybat, haqorat, jibonat, hasad, nifoq, tama’, zulmdir. Aynan Yuqorida keltirilgan yaxshi xulqlar ila farzandlarimizni xulqlantirmog‘imiz hamda sanab o‘tilgan yomon xulqlardan saqlamog‘imiz zarurdir. Avloniy har bir yaxshi hamda yomon xulqlarga ta‘rif berar ekan uning ahamiyati, bizning saodatga erishishimizda uning ta‘siri haqida to‘laqonli bayon etilgan. Misol tariqasida Ilmga ta‘rif berar ekan, ilm inson uchun g‘oyat oliy va muqaddas bir fazilat ekanli, ilmsiz insonni mevasiz daraxtga o‘xshatadi. Ilm insonni jaholat botqoqidan qutqaruvchidir. Mutafakkirning pedagogik qarashlarida aql va ilmning yuksak darajada ulug‘lanishi insonni ulug‘lash bilan chambarchas bog‘lanadi.

“Turkiy guliston yoxud axloq” asarini mutolaa qilar ekansiz asardagi keltirilgan pedagogik qarashlar hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligi, hozirgi ta‘lim tarniya sohasida hamon dolzab ekanligini anglab yetasiz. Bu kitob zamonaviy pedagoglar yetishtirish, yangi darsliklar yaratish va majmualar yaratish uchun asosiy qo‘llanma vazifasini o‘tadi. Abdulla Avloniy pedagogika fanining asoschisidir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jadidlar. Abdulla Avloniy[Matn]:risola./Olim Oltinbek.-Toshkent:Yoshlar nashriyot uyi, 2022.-156 b.
2. Abdulla Avloniy Tanlangan asarlar 2-jild. Toshkent “Ma‘naviyat” 2009. ; 300 b.
3. “Turkiy Guliston Yoxud Axloq” 2-tab‘i, sana 1336 h./1917 m. Toshkent, Tip. Lit. «Par. Sots. revolyuts» 1917g.
4. Qosimov B. Abdulla Avloniy.-Toshkent, 1979.
5. Zunnunov, A. Pedagogika tarixi.Toshkent- 2004.
6. Dolimov, U. Abdulla Avloniy-milliy uyg‘onish davri o‘zbek pedagogikasining asoschisi.
7. Abdulla Avloniy. Toshkent tongi. T., G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1979.

#### Internet resurslar

1. <https://uz.wikipedia>
2. <https://cyberleninka.ru/article>